



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLİYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	



HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Ibodova Dilsora Ibodovna

Qarshi davlat universiteti

mustaqil izlanuvchi

E-mail: guzelka7755@gmail.com

ORCID: 0009-0009-7224-6724

Annotatsiya. Mazkur maqolada turizm sanoatining hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Turizm sanoatining mazmuni va mohiyati tadqiq etilib, uning bugungi kunda jahon miqyosida tutgan o'rni hamda ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, mamlakatning boy madaniy merosi, tarixi, an'analari va boshqa diqqatga sazovor maskanlarini hisobga olgan holda hududlarda turizmni rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: turizm sanoati, turizm salohiyati, hududlarda turizmni rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, raqobatbardoshlik.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the impact of the tourism industry on the socio-economic development of regions. The concept and essence of the tourism industry are examined, and its role and significance in the global economy are highlighted. In addition, practical approaches to tourism development are proposed, taking into account the country's rich cultural heritage, history, traditions, and other tourist attractions.

Key words: tourism industry, tourism potential, regional tourism development, socio-economic development, competitiveness.

Аннотация. В статье проводится научный анализ влияния туристической индустрии на социально-экономическое развитие регионов. Исследуются сущность и содержание туристической индустрии, а также раскрываются её роль и значение в современном мировом хозяйстве. Кроме того, предлагаются практические направления развития туризма с учётом богатого культурного наследия, истории, традиций и других достопримечательностей страны.

Ключевые слова: туристическая индустрия, туристический потенциал, развитие туризма в регионах, социально-экономическое развитие, конкурентоспособность.

KIRISH

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi hududlarda soha va tarmoqlar diversifikatsiyasini talab qiladi. Bugungi kunda dunyoda turizm sanoatini rivojlantirish mintaqaviy siyosatning istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, uning hududlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi asosiy vositalardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi. Xususan, jahon yalpi ichki mahsuloti (YalIM) hajmining 10 foizi, ish bilan bandlikning 10 foizi (357 million ish o'rni) hamda jami eksportning 31 foizi turizm sanoati hissasiga to'g'ri kelishi buning yaqqol isbotidir [1].

Turizm sanoati zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim faoliyat sohalaridan biri bo'lib, aholining ehtiyojlarini qondirish va turmush sifatini yaxshilashda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, turizm iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlaridan farqli ravishda eksportga yo'naltirilgan soha bo'lgani sababli tabiiy resurslarning kamayishiga olib kelmaydi hamda ichki va tashqi bozorlarda boshqa sohalarga nisbatan barqaror faoliyat yuritadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham turizm sanoati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim istiqbolli sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizning boy madaniy, tarixiy va tabiiy merosga egaligi turizm sanoatini rivojlantirish salohiyatini oshirib, uning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bois, O'zbekiston hududlarida turizm sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston qadimiy tarixiy va me'moriy yodgorliklari, boy tabiati hamda zamonaviy taraqqiyoti bilan butun dunyo e'tiborini tortib kelmoqda. Xivadagi Ichan qal'a majmuasi, Buxoro, Shahrisabz va Samarqand tarixiy markazlari YuNESKOning "Butunjahon merosi" maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Ushbu shaharlardagi noyob yodgorliklar va me'moriy inshootlar mamlakat tarixida muhim o'rin egallaydi.



Xususan, Shahrisabz shahri 2 700 yillik qadimiy tarixga ega. Shahrisabz buyuk sarkarda va davlat arbobi, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur bobomiz kamolga yetgan mo'tabar maskan sifatida dunyoga mashhurdir. Bu shahar qadimdan ulug' alloma va shoirlari, san'at va madaniyat namoyandalari, mohir hunarmandlari bilan shuhrat qozonib kelmoqda. Uning bag'ridagi noyob me'moriy obidalar va nodir yodgorliklar ushbu haqiqatni yaqqol tasdiqlaydi [2].

Xorazm viloyatining yana bir bebaho boyligi uning muhtasham tarixiy obidalaridir. Ochiq osmon ostidagi shahar-muzey — Ichan qal'a majmuasining umumbashariyat xazinasi sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham buning yaqqol dalilidir. Bugungi kunda viloyatda 260 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning tarixi bir necha asrlarga borib taqaladi. Shubhasiz, ushbu obidalar o'zining noyob va go'zal me'moriy qiyofasi bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning jahon sivilizatsiyasidagi betakror o'rnini belgilab beruvchi tirik tarix hisoblanadi [3].

Samarqand shahri so'nggi yillarda siyosiy, iqtisodiy, turizm va biznes markaziga aylanib, ko'plab yirik xalqaro tadbirlar, forum va anjumanlar uchun muhim muloqot maydoni vazifasini bajarmoqda. "Boqiy shahar" majmuasining barpo etilishi, 40 dan ortiq muqaddas ziyoratgohlarning obod qilinishi, "Samarqand" xalqaro aeroportining qayta qurilishi hamda o'nlab xalqaro brend mehmonxonalar faoliyatining yo'lga qo'yilishi viloyat turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi [4].

Buxoro shahri o'zining ko'p asrlik tarixiy obidalari va asori-atiqalari bilan doimo dunyo ahli e'tiborini tortib kelgan. Buxoro viloyatida jami 829 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo'lib, shundan 287 tasi arxeologik yodgorliklar, 508 tasi arxitektura obidalari, 17 tasi monumental yodgorliklar hamda 17 tasi diqqatga sazovor joylardir. Minorai Kalon, Ark, Masjidi Kalon, Chor Minor, Ismoil Somoniy maqbarasi kabi yodgorliklar Markaziy Osiyo me'morchiligining nodir durdonalari hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning dunyoga keng ochilishi natijasida xorijiy sayyohlar soni 10 million kishidan oshib, sayohat xizmatlari eksporti 3 milliard AQSh dollaridan ortdi (2024-yilning mos davriga nisbatan) [5].

Iqtisodiy atamalarining izohli lug'atida keltirilishicha, turizm (fransuz tilidagi tour — aylanish, ingliz tilidagi turn — safar qilish) — kishilarning doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi bilan bog'liq ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisalar majmui bo'lib, odatda sayr qilish va dam olish ma'nolarini anglatadi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–87-son¹ Farmoniga muvofiq, joriy yilda respublika hududlariga 15,8 million nafar xorijiy turistlar tashrifini tashkil etish, turizm xizmatlari eksportini 4 milliard AQSh dollariga yetkazish, ichki turizmni rivojlantirish hisobiga 40 million nafar mahalliy sayyohlarning hududlarga safarlarini amalga oshirish, qo'shimcha 378 ta turoperator faoliyatini yo'lga qo'yish, hududlarda 108 ta yangi mehmonxona, 375 ta oilaviy mehmon uyi va 123 ta xostel qurish, shuningdek, 745 ta kapsula va o'tov uylar, apart-otel va modul mehmonxonalar hamda 12 ta turizm qishlog'i va turizm mahallasini tashkil etish belgilangan [7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmning ilk ko'rinishlari qadimiy davrlarga borib taqaladi, biroq ommaviy-ijtimoiy voqelik sifatida u XX-asr o'rtalarida shakllangan. Turizm sanoatining ijtimoiy-iqtisodiy hamda texnologik rivojlanishi bir qator tadqiqotchi olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning maqsadli vazifalaridan kelib chiqqan holda to'rt bosqichga ajratiladi [8; 9; 10; 11; 12]. Birinchi bosqich — XIX-asr boshigacha bo'lgan davr bo'lib, turizmning ilk ko'rinishlarining yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi bosqich — XIX-asr oxiri – XX-asr boshigacha bo'lgan davrni qamrab olib, turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi ilk ixtisoslashgan korxonalarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Uchinchi bosqich — XX-asr o'rtasigacha bo'lgan davr bo'lib, ijtimoiy turizm rivojlanishining boshlanishi bilan izohlanadi. To'rtinchi bosqich — XX-asr o'rtasidan bugungi kungacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, tarmoqlararo majmuani qamrab olgan turizm sanoatining jadal rivojlanishi bilan belgilanadi.

Turizm sanoatining ilk rivojlanish bosqichlarida unga ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning muhim sohasi sifatida qaralmagan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan soha izchil taraqqiy etib bordi va uning iqtisodiy ahamiyati ortib bordi. 1980-yillarga kelib, turizmning mohiyati va uning boshqa ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turlari bilan o'zaro aloqasi to'g'risida aniq ilmiy tushunchalar shakllana boshladi [13]. Mazkur davrga kelib iqtisodchilar tomonidan turizm sanoati iqtisodiy fenomen sifatida jahon va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etildi.

Shu o'rinda iqtisodchi olimlarning ayrim ilmiy qarashlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, M. Porter turizm sanoatida iste'molchi uchun nafaqat hududning jozibadorligi, balki taqdim etiladigan mahsulotlar

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–87-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-7531559?%2000>



(tovarlar va xizmatlar) sifati hamda infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaydi [14]. J. Jackson va P. Murphy esa turizm sanoati mahalliy bozorlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ochish, mintaqada tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash hamda klaster yondashuvini qo'llash zarurligini ta'kidlaydilar [15]. O. Kol yirik shaharlarda ichki va tashqi turizm bozorlarida hududiy hamda o'zaro bog'liq mahalliy turizm raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi [16]. O. I. Kapustina va G. A. Smirnova esa hududlarda turizmni rivojlantirish iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy hamda ekologik jarayonlarga ta'sir ko'rsatishini hisobga olgan holda tizimli yondashuvni talab etishini ta'kidlaydilar [17].

Milliy olimlar fikricha, turizm sohasini rivojlantirish va undan yuqori natijadorlikka erishish milliy iqtisodiyotda turizm sanoatini shakllantirishni taqozo etadi. Sayyohlar ehtiyojlarini to'laqonli qondirish maqsadida turizm sanoatida birlamchi xizmatlar (transport, joylashtirish, ovqatlanish), shuningdek, sayohat maqsadidan kelib chiqqan holda maxsus (madaniy, ko'ngilochar, dam olish) va qo'shimcha xizmatlar tashkil etiladi. Bu esa sohada doimiy ravishda yangi faoliyat turlarining yuzaga kelishiga, shuningdek, yondosh tarmoqlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi, deb hisoblanadi [18].

Muallifning fikricha, zamonaviy sharoitda turizm sanoatining rivojlanishi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, raqobatbardoshlik darajasi, investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari, infratuzilmaning holati, moliyaviy va marketing omillariga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Turizm doimiy yashash joyidan tashqarida sayyohlik qilish, yangi va rejalashtirilgan hududlarga, chekka va olis joylarga sayohat qilish hamda aylanish bilan bog'liq faoliyat turi hisoblanadi [19].

Shu nuqtai nazardan, turizm sanoatini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni chuqur o'rganish va ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish zarur. Xususan, mamlakat turizm sanoatida tibbiy, davolanish va sog'liqni yaxshilash turizmi; ishbilarmonlik turizmi; sport turizmi; atrof-muhit (ekologik) turizmi; sanoat turizmi; mehmondo'stlik turizmi; dam olish maqsadidagi turizm; madaniy va ma'rifiy turizm; harbiy-vatanparvarlik turizmi; yoshlar va bolalar turizmi; suv turizmi; piyoda yurish turizmi; tog' va ekstremal turizm; ilmiy turizm; milliy urf-odatlar va an'analar bilan tanishishga qaratilgan turizm; qishloq joylari turizmi; yashil turizm; ziyorat va diniy turizm hamda ovchilik turizmi kabi yo'nalishlarni rivojlantirish va ularning infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolada muallifning mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirishda turizm sanoatining ahamiyati hamda mavjud holat bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan materiallari va istiqbolda e'tiborga molik ayrim qarashlari keltirilgan.


Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmida turizm sanoati ulushi 2020-yilda 2 foizni, 2021-yilda 2,2 foizni, 2022-yilda 2,6 foizni, 2023-yilda 3,5 foizni, 2024-yilda 4,7 foizni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 5 foizga yetishi yoki tahlil davrida 3 bandga o'sishi kutilmoqda (1-rasm) [20].



1-rasm. 2020–2025-yillarda YAIM hajmida turizm sanoati ulushi dinamikasi, foizda²




Mamlakatda turizm sanoatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida O'zbekistonga 2020-yilda 1 501,1 ming nafar, 2021-yilda 1 881,4 ming nafar, 2022-yilda 5 232,8 ming nafar, 2024-yilda 7 957,2 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurgan bo'lib, 2025-yilda 15 800 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurishi kutilmoqda (2-rasm) [20].



2-rasm. 2020–2025-yillarda mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlar dinamikasi, ming kishi³

2020-yilda mamlakatga tashrif buyurgan sayyohlarning 94,4 foizi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridan, 5,6 foizi esa boshqa davlatlardan kelgan bo'lsa, mos ravishda 2021-yilda ushbu ko'rsatkichlar 91,1 foiz va 8,9 foizni, 2022-yilda 94,9 foiz va 5,1 foizni, 2023-yilda 92,2 foiz va 7,8 foizni, 2024-yilda 90,3 foiz va 9,7 foizni tashkil etgan. 2025-yilda esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridan tashrif buyurgan sayyohlar ulushi 89,6 foizni, boshqa davlatlardan kelgan sayyohlar ulushi 10,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda (3-rasm). 2020–2024-yillarda mamlakatga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlaridan tashrif buyurgan sayyohlar soni 53 barobarga, boshqa davlatlardan tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni esa 92 barobarga oshgan [20].




3-rasm. 2020–2025-yillarda mamlakatga Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqa davlatlardan tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar dinamikasi, foizda⁴

3 Muallif ishlanmasi

4 Muallif ishlanmasi




2020–2025-yillarda turizm korxonalari soni 2,4 barobarga, xizmat ko'rsatilgan sayyohlar soni 2,1 million kishiga hamda sotilgan sayyohlik xizmatlari 672 ming taga ko'payganligini kuzatish mumkin (4-rasm) [20].



4-rasm. 2020–2025-yillarda mamlakatda turizm korxonalari, xizmat ko'rsatilgan va sotilgan sayyohlik xizmatlari dinamikasi, foizda⁵

2030-yilgacha mamlakatda turizm sanoatining YAIMdagi ulushi amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha, chet ellik turistlarning yillik soni esa amaldagi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha yetkazilishi rejalashtirilgan (5-rasm) [21].



5-rasm. 2030-yilda mamlakat YAIM hajmida turizm sanoati ulushi, foizda, hamda MDH va boshqa davlatlardan tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar dinamikasi, mln nafar⁶

Shu jumladan, to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan turistlar oqimini ko'paytirish, turizm xizmatlari yillik eksporti hajmini 6 mlrd AQSh dollaridan oshirish, turistlar shaharlari o'rtasidagi transport bog'lanishini yaxshilash hamda ichki aviqatnovlar sonini ko'paytirish hisobiga yo'lga sarflanadigan vaqtni kamida 3 barobarga qisqartirish, 4

5 Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi



va 5 yulduzli mehmonxonalar sonini 2 barobarga oshirish, turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali respublikaning turistik salohiyatini to'liq ishga solish, jahon miqyosida keng tan olinadigan milliy turistik brendni yaratish hamda milliy turistik mahsulotlarni ommalashtirish uchun yangi instrumentlarni joriy etish ko'zda tutilgan [21].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, mamlakatda turizm sanoatini rivojlantirish borasida salohiyat katta bo'lib, shu bilan birga, to'liq ishga solinmagan imkoniyatlar ham mavjud. Bunda turizm sanoatini hududlarda (tovarlar va xizmatlar) targ'ib qilish hamda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi:

- infratuzilmalarni (transport, muhandislik, axborot, innovatsion va shu kabilar) rivojlantirish hamda zamonaviy yechimlarni taklif etish;
- ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish (mamlakatga kirish–chiqish tizimini soddalashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish);
- sohada kadrlar tayyorlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish;
- yil davomida mavsumiy turizm sanoati turlarini ko'paytirish va rivojlantirish;
- atrof-muhitga turizm sanoati ta'sirini kamaytirish hamda uni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish;
- mamlakatning samarali ilg'or xorijiy tajribalar asosida brend-marketing strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Shunday qilib, turizm sanoatini O'zbekiston hududlarida rivojlantirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga sezilarli hissa qo'shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2018-yil 6-sentabr kuni Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. Elektron manba: <https://president.uz/uz/lists/view/2021>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2025-yil 1-may kuni Xiva shahrida "Arda Xiva" xalqaro turizm markazining tatanali ochilish marosimidagi nutqi. Elektron manba: <https://president.uz/uz/lists/view/8105>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2025-yil 25-noyabr kuni Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. Elektron manba: <https://president.uz/uz/lists/view/8706>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–87-son Farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/7531559>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–348-son qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
7. World Travel and Tourism Committee. Travel and Tourism Economic Impact 2024: World. Elektron manba: <https://wttc.org/research/economic-impact>
8. Ibodova D. Mamlakat brend-marketingi sayohatni rivojlantirish omili sifatida (BAA: Dubay shahri misolida). Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot: ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal, 2025-yil noyabr, № 11, 1661–1666-betlar.
9. Norqulov I., Mahmudov O. Iqtisodiyot atamalarining izohli lug'ati. Toshkent: "SAHHOF", 2022. 424 b.
10. Shapoval G. F. Istoriya turizma. Ekoperspektiva, 1999.
11. Makarenko S. N., Saak A. E. Istoriya turizma. Taganrog, 2003. 12 b.
12. Saprunova V. B. Turizm: evolyutsiya, struktura, marketing. Moskva: "Os'–89", 2014. 160 b.
13. Lickorish L. J., Jenkins C. L. An Introduction to Tourism. New York: Routledge, 2011.
14. Jayapalan N. An Introduction to Tourism. New Delhi: Atlantic Publishers and Distributors, 2001.
15. Mejdunarodnye rekomendatsii po statistike turizma UNWTO (MRST–2008). Statisticheskie dokumenty, Seriya M, № 83. Madrid – New York, 2008.
16. Porter M. "Clusters and the New Economics of Competition". Harvard Business Review, 1998, vol. 76, 77–90-betlar.
17. Jackson J., Murphy P. "Tourism Destinations as Clusters: Analytical Experiences from the New World". Tourism and Hospitality Research, 2002, vol. 4, № 1, 36–52-betlar.
18. Kol O. D. Kontseptual'nye osnovy formirovaniya klastera turistskikh predprinimatel'skikh struktur po v'ezdnomu turizmu v krupnom gorode. Problemy sovremennoy ekonomiki, 2010, № 1 (33).
19. Kapustina O. I., Smirnova G. A. Razvitie turizma kak faktor povysheniya sotsial'no-ekonomicheskogo rosta regionov. Sankt-Peterburg: Universitet tekhnologiy upravleniya i ekonomiki, 2017. 262 b.
20. Xolbadalov O'. Sh. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda soliq imtiyozlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Dissertatsiya. Toshkent, 2022-yil, 17-bet.
21. Ibodova D., Ibodova D. Hududlarni inklyuziv rivojlantirish (Qashqadaryo viloyati misolida). Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, V-son, 2025-yil, 769–777-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>